

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024 yil 30 - apreldagi
80 - son buyrug'iga
ilova

Uy-joy narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Uy-joy narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda – GSBPM)) va “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o'rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Uslubiy nizom statistika organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi uy-joylar narxlari kuzatuvini tashkil etish va indekslarini hisoblash maqsadida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda “Uy-joy narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma” (XMT, XVJ, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Yevropa iqtisodiy kommissiyasi va Jahon banki) tavsiyalaridan foydalanilgan.

Ushbu Uslubiy nizom uy-joylar narxlari bo'yicha statistika kuzatuvlarini tashkil etish, o'rtacha narxlar bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirish va narxlar indeksini hisoblash maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy qilish GSIMga muvofiq, “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma”da nazarda tutilgan bosqichlar asosida amalga oshirilgan.

2. Uy-joy narxlarining statistik kuzatuvi uy-joy bozorining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish hamda ularning narx indekslarini shakllantirishda foydalaniladigan uy-joylarning o'rtacha darajasini hisoblashda foydalanilib, uy-joylarning narx indekslarini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi.

3. Ushbu Uslubiy nizomda uy-joy narxlari indeksini shakllantirishdagi mavjud usullar, narxlar to'g'risidagi axborotlarni olishda ma'lumotlar manbaining o'ziga xosligi hamda respublika bo'yicha uy-joy narxlarining indeks ko'rsatkichlarini hisoblash tartiblari keltirilgan.

4. Mazkur Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

uy-joy bozori – avval foydalanishda bo'lgan yoki yangi qurilgan turar-joy oldi-sotdisi bilan bog'liq bozor;

turar joy – yarmidan ko'p joyi (hududi) yashash uchun mo'ljallangan bino;

birlamchi uy-joy bozori – foydalanishga yangi kiritilgan uy-joy bozori;

ikkilamchi uy-joy bozori – sotish obyekti ma'lum vaqtdan beri foydalanishda bo'lgan va foydalanish natijasida ma'lum darajada eskirgan uy-joy bozori;

uy-joy narxlari indeksi – turar-joy (yashash) narxlari o'zgarishini aks ettiruvchi nisbiy ko'rsatkich;

turar-joyning umumiy maydoni – xonadonning turar va noturar joylarining umumiy maydoni;

turar-joy umumiy maydoni bir kvadrat metrining o'rtacha narxi – turar-joy umumiy maydonining bir kvadrat metriga narx darajalarining o'rtacha tortilgan geometrik kattaligi.

Ushbu Uslubiy nizomda keltirilgan atamalar, faqat statistika organlari tomonidan statistika maqsadlarida qo'llaniladi.

2-bob. Uy-joy bozoridagi narxlar indeksini hisoblash uchun tadqiqot vositalari

5. Uy-joylarning o'rtacha narxlari va narxlar indekslarini shakllantirishdagi birlamchi ma'lumotlar manbai bo'lib, Statistika agentligi va "OLX CLASSIFIEDS" korxonasi o'rtasida axborot hamkorligi to'g'risida imzolangan memorandumga asosan OLX.UZ sayti platformasidan olingan ma'lumotlar, ma'muriy manbalar ma'lumotlari, shuningdek, 12 narx (uy-joy) "Uy-joy narxlari to'g'risida so'rovnoma" asosidagi uy-joy narxlari tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari hisoblanadi.

So'rovnoma shakli GSIMga muvofiq Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

6. Zarur hollarda ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan boshqa hujjatlar va savolnomalardan foydalanish mumkin.

3-bob. O'rtacha narxlar va narxlar indekslarini shakllantirishning asosiy bosqichlari

7. GSBPMga muvofiq, narx indeksini bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Narx indeksini shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

a) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan obyektlar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

b) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari);

v) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari);

g) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va narx indeksini shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

1-§. Ma'lumotlar manbai va narxlarni ro'yxatga olish tartibini aniqlash

9. Uy-joy narxlari indeksi ma'lumotlar manбайдan olingan axborotlarning sifatiga bog'liq. Uy-joy narxlari indeksini shakllantirishda maqbul ma'lumotlar manbaini tanlash eng asosiy vazifalardan biridir. Quyidagilar ma'lumotlar manbai tanlovining asosiy mezonlari hisoblanadi:

foydalanilayotgan ma'lumotlar manbai uy-joy narxlari indeksini shakllantirish maqsadlariga mos bo'lishi;

manba tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar aniq va to'liq bo'lishi kerak;

narx ma'lumotlari dolzarb bo'lishi hamda belgilangan muddatdan avval olinishi;

turar-joy obyektlari sifat o'zgarishini hisobga olish uchun zarur ma'lumotlar hajmi bilan ta'minlashi;

tushunchalar, qamrov, davriylik va boshqa tavsiflar bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan foydalaniladigan manbalarga zid kelmasligi lozim.

10. Uy-joy narxlari indeksini hisoblashda ma'muriy manbalar, ko'chmas mulk agentliklari, internet resurslari, ommaviy axborot vositalari va boshqa manbalar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

11. Manbalar tarkibidagi ma'lumotlar tavsifi, sifati va tezkorligi, qamrov darajasi va davriyligi, kuzatuv birliklari, tushunchalar va ularning ta'riflari bo'yicha farqlanadi.

12. Statistika maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan ma'muriy manbalar minimal xarajat bilan yuqori darajadagi to'liqlik va sifatga ega hisoblanadi. Qator mamlakatlarda uy-joy narxlari indeksini shakllantirishda yer registri va notariuslar kabi ma'muriy manbalar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

13. Agar ma'muriy manbalar ma'lumotlari talabga javob bermasa uy-joy bozoridagi narxlar indeksini shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar maxsus tashkil etilgan kuzatuvlardan, uy-joy narxlarini sotish bo'yicha e'lonlardan, ommaviy axborot vositalari yoki internet manbalaridagi axborotlardan olinadi.

2-§. Narxlar kuzatuvini amalga oshirish uchun obyektlar tanlanmasini shakllantirish

14. Ma'lumotlar manbaiga qarab birlamchi va ikkilamchi bozordagi uy-joylarning sotish narxlari kuzatiladi.

15. Uy-joy narxlari indeksini shakllantirishda tabaqalashtirish (stratifikatsiyalash) usulidan foydalaniladi.

16. Stratifikatsiyalash bu – uy-joy narxlari indeksini shakllantirishdagi to'g'ridan-to'g'ri va oddiy hisoblash usulidir. Stratifikatsiyaning maqsadi – jamlangan obyektlarning boshlang'ich narxlarini biroz farqlanishi bilan ajralib turadigan guruhlariga ajratishdir.

17. Ajratish narxlarni belgilovchi xususiyatlarga ko'ra amalga oshirilib, ularning asosiylari turar-joy maydoni (jami va turar-joy), joylashgan manzili, turi, uy devori materiallari hamda boshqa xususiyatlar (qavat, xonalar soni, sanitariya moslamalari soni, lift va boshqalar) hisoblanadi.

18. Stratifikatsiya qilingan namunani tanlash ikki bosqichli jarayon bo'lib, o'rganilayotgan jamlanmani tashkil etadigan ko'plab elementlar qatlamlarga bo'linadi, shuning uchun uning har bir elementi bitta va bitta qatlamga kiradi.

19. Stratifikatsiya uchun o'zgaruvchini tanlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

bir qatlamning elementlari bir-biriga o'xshash va turli qatlamlarga kiritilgan elementlar bir-biridan farq qiladi;

o'zgaruvchilar uy-joy narxlari bilan chambarchas bog'liq. Bu munosabatlar qanchalik yaqin bo'lsa, olinadigan ma'lumotlar shunchalik aniqroq bo'ladi;

o'zgaruvchilar tabaqalanish (stratifikatsiyalanish)ning soddaligini hisobga olgan holda tanlanadi.

20. Stratifikatsiya parametrlarini tanlash doimiy ravishda uy-joylarning xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligiga va ularning narxga ta'sir qilish darajasiga bog'liq. Tabaqaning maqbul sonini aniqlash stratifikatsiyalash usulining asosiy vazifalaridan biridir.

21. Uy-joylarning xususiyatlariga ko'ra batafsil stratifikatsiyalash qatlamning bir xilligini ta'minlaydi va uy-joy sifatining o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni kamaytiradi. Bir xil qatlamlarni aniqlashda har bir guruhning o'rtacha narxi uy-joyning ma'lum turi uchun doimiy sifat narxi sifatida ishlatiladi. Qatlamlar sonining haddan ziyod ko'payishi bilan guruh ichidagi kuzatuvlar soni kamayadi yoki unda bitta ham turar-joy obyekti bo'lmaydi.

22. Yiriklashtirilgan stratifikatsiyalashda qatlam ichidagi turar-joy obyektlari tanlanmasida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu esa vaqt o'tishi bilan kuzatilayotgan uy-joylarning taqqoslanishi tartibining buzilishiga sabab bo'ladi va uy-joy narxlari indeksi o'lchovini buzilishi ehtimolini oshiradi.

Amaldagi ma'lumotlar manbalari uy-joylarni tanlangan xususiyatlarga ko'ra guruhlariga bo'lish va har xil turdagi uy-joylarning narx indekslarini shakllantirish imkonini beradi.

23. Stratifikatsiya usulining tamoyillarini foydalanuvchilarga tushuntirish oson bo'lib, bu esa ko'rsatkichni shakllantirish metodologiyasining shaffofligini ta'minlaydi.

24. Uy-joy narxlari kuzatuv hududiy statistika organlarining narx bo'yicha mas'ul mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Ma'lumot yig'ish uy-joylar savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning xodimlari bilan bevosita so'rov o'tkazish yo'li bilan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari yoki internet-resurslarda joylashtirilgan e'lonlardan qayd etilgan holda amalga oshiriladi.

25. Narxlar to'g'risida ma'lumot har oy Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha yig'iladi.

26. Yangi uy-joy narxlarining monitoringi uchun hududlarning birlamchi uy-joy bozorida mavjud bo'lgan uy-joy turlarining namunasi tanlab olinadi. Kuzatish uchun tanlangan shaharlarda barcha yangi turar joy binolari namunalari kiritiladi. Agar shaharda tijorat qurilish tashkilotlari tomonidan qurilgan yangi turar joy bo'lmasa, davlat dasturlari doirasida sotiladigan uy-joy kuzatuv tanloviga kiritilishiga yo'l qo'yiladi.

27. Narxlarni ro'yxatga olishda yangi ko'p qavatli uylardagi devor materiallari g'isht, panelli (monolit) yoki blokli har xil bezaklarga ega bir, ikki, uch, to'rt xonali shinam xonadonlar qamrab olinadi.

Tayyor xonadonlar bu – yashashga to'liq tayyor xonadonlar. Bunday xonadonlar ichki pardoz (devor sirtini qoplash, bo'yoqlash, devor gulqog'ozlarini yopishtirish) ishlari tugatilganligi, pollarni tartibga solinganligi, sanitariya tizimlari va jihozlari, maishiy elektr jihozlari, gaz yoki elektr pechkalari va yopiq eshik bloklari o'rnatilganligi bilan tavsiflanadi.

Yaxshilangan yoki qurib bitkazilgan xonadonlar bu – yashash uchun har xil darajadagi tayyor xonadonlar bo‘lib, bunda bezatish bilan bog‘liq ishlar bajarilishi kerak.

28. Xonadonning taklif etilayotgan narxi batafsil tavsiflar bilan qayd etiladi, jumladan, uyning tashqi devorlari, joylashgan joyi, materiali, xonalar soni, bezagi, umumiy turar-joy maydoni va oshxona maydoni, qavatlar soni, xonadon qavati, turar joy sinfi, turar-joy kompleksining nomi (agar mavjud bo‘lsa).

29. Ikkilamchi bozorda, so‘rov davrida o‘zgarmagan, tanlangan xususiyatlarga ega (umumiy maydoni, joylashgan o‘rni, xonalarning soni, qavati, uyning devor materiali, qurilgan yili) to‘liq va to‘liqsiz sharoitga ega uy-joylarni qayta sotish narxlari kuzatilishi kerak. Xonadonlarni tanlashda ularning eng ko‘p tarqalgan vakil turlari hisobga olinadi.

30. Uy-joy tanlovini shakllantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

vakillik – kuzatuvga kiritilgan xonadon turi uy-joy bozorining umumiy tuzilishida katta ulushni egallaydi va taqdim etilgan turning narx dinamikasini aks ettiradi;

dolzarblik, muntazamlik – tanlangan xonadonning turi talabga ega va uzoq vaqt davomida bozorda bo‘lib turibdi.

31. Qulay uy-joylarni qayta sotish narxini kuzatish uchun namunaviy, ko‘p qavatli g‘ishtli, yaxlit yoki panelli uylardagi bir, ikki, uch, to‘rt xonali kvartiralar, qulay bo‘lmagan uy-joylar uchun – kommunal sharoitlarning kamida bitta turiga ega bo‘lmagan (suv ta‘minoti, kanalizatsiya, markaziy isitish, issiq suv) ko‘p qavatli uylardagi xonadonlar tanlab olinadi.

32. Ko‘rsatkichlarni hisoblashning aniqligi uchun axborotni har xil ko‘rinishda nazorat qilish ko‘zda tutiladi. Hisob-kitoblarda, haddan tashqari yuqori yoki past narxlar bo‘yicha bitimlar, belgilangan chegaradan ortiq yoki kam xonalar va xonalar soni bo‘lgan uy-joy sotish bo‘yicha ma‘lumotlar hisobga olinmaydi.

33. Agar qatlamdagi bitimlar soni kichik yoki nolga teng bo‘lsa, ushbu qatlamga narxlar indeksini hisoblash uchun ular shartli ravishda shaharning boshqa qatlamlari yoki boshqa shaharlarning o‘xshash qatlamlari uchun narxlarning o‘rtacha o‘zgarishi asosida hisoblanadi.

3-§. Turli darajadagi jamlanma narxlar indeksini hisoblash uchun ko‘rsatkichlarni o‘lchash tizimini shakllantirish

34. Narxlar indekslarini shakllantirish uchun hududlar va respublika bo‘yicha o‘lchov tizimi shakllantiriladi.

Vaznlarni o‘lchash tizimi standart tasnifga muvofiq turli xil umumlashtirish darajasi bo‘yicha aniqlanadigan uy-joy turlari salmoqlarining yig‘indisidir. Undan foydalanib, indikatorlarni eng past darajadan yuqori darajagacha bo‘lganlari jamlanadi.

Salmoqlarning tarkibiy qismlari har bir o'rganilayotgan turar joy turining ahamiyatini va uning narxidagi o'zgarishlarni indeksning umumiy qiymatida ta'sirini aks ettiradi.

35. Salmoq vaznlarni shakllantirishda adliya organi tomonidan taqdim etiladigan rasmiylashtirilgan oldi-sotdi shartnomalari soni to'g'risidagi ma'lumotlar asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

36. Uy-joy narxlarining statistika kuzatuvlari asosida quyidagi turlar bo'yicha narxlar indeksleri shakllantiriladi:

- uy-joy bozori;
- birlamchi uy-joy bozori;
- ikkilamchi uy-joy bozori.

4-§. O'rtacha narxlar va narxlar indekslarini hisoblash

37. Mavjud manbalardan olingan ma'lumotlarga asosan, uylarni (ko'p xonali uylardagi xonadonlar) sotish bo'yicha bir, ikki, uch va to'rt xonali xonadonlarning o'rtacha narxleri va narxlar indeksleri shakllantiriladi.

38. Uy-joy bozoridagi o'rtacha narxlar va narxlar indekslarini hisoblash Statistika agentligi tomonidan har chorakda amalga oshiriladi.

39. Hududdagi k - turdagi uy-joyning umumiy maydoni 1 kvadrat metrining o'rtacha narxi ushbu turdagi uy-joy obyektlarida kuzatilayotgan narxlardan o'rtacha geometrik birlik sifatida hisoblanadi:

$$\overline{P}_{i(t)}^k = \sqrt[n]{P_1 \times P_2 \times \dots \times P_n}$$

bunda

$\overline{P}_{i(t)}^k$ - t - davrda i - shahardagi k - turdagi uy-joyning o'rtacha narxi;

$P_1 \times P_2 \times \dots \times P_n$ - t - davrdagi k - turdagi uy-joyning narxlarini hisoblash;

n - t - davrdagi k - turdagi uy-joy narxlarining to'plamdagi (qatlamdagi) soni.

40. k - turdagi uy-joyning umumiy maydoni bir kvadrat metrining respublika bo'yicha o'rtacha narxi hisob-kitobi kuzatilayotgan shaharlardagi o'rtacha narxlar va ularning vaznlari tarkibiga asosan quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$\overline{P}_{O'zR(t)}^k = \frac{\sum_{i=1}^n \overline{P}_{i(t)}^k \times \omega_i}{\sum_{i=1}^n \omega_i}$$

bunda

$\overline{P}_{OZR(t)}^k$ – t - davrdagi k - turdagi uy-joyning respublika bo'yicha o'rtacha narxi;

$\overline{P}_{i(t)}^k$ – i - hududdagi k - turdagi uy-joyning t - davrdagi o'rtacha narxi;

ω_i – i - hududning vazni;

n – narxlar soni.

Respublika bo'yicha uy-joylarning o'rtacha narxlarini hisoblash uchun respublika bo'yicha yil davomida sotilgan uy-joylarning sonini kuzatuvdagi yillik narxiga ko'paytmasi ko'rinishidagi umumiy hajmi ulushi hudud uchun vazn bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi formulaga o'xshash formuladan uy-joy o'rtacha narxlarini oddiy darajadan yuqoriroq darajaga jamlash uchun foydalaniladi. Ushbu holatda ω_i – i turdagi uy-joyning vazni hisoblanadi.

41. Uy-joy o'rtacha narxlari individual o'rtacha narxlar indeksini hisoblash uchun asos hisoblanadi. Individual (elementar) narxlar indeksi o'rganilayotgan to'plamning (aniq turdagi uy-joyning) bitta elementi narxlari o'zgarishini aks ettiradi.

$$STR_i = \frac{\overline{P}_{(t)}^k}{\overline{P}_{(t-1)}^k}$$

bunda

STR_i – uy-joyning hudud (respublika) bo'yicha t - davrda o'tgan $t-1$ davrga nisbatan narx indeksi;

$\overline{P}_{(t)}^k, \overline{P}_{(t-1)}^k$ – mos ravishda t va $t-1$ davrlarda hudud (respublika) bo'yicha uy-joylarning narxi.

Har bir guruh bo'yicha qisqa muddatli narxlar indeksini hisoblashda yuqoridagiga o'xshash yondashuvdan foydalaniladi.

42. Har chorakda avvalgi chorakga nisbatan narx indekslari hisoblanishidan tashqari, o'tgan yilning IV choragiga, o'tgan yilning mos choragiga hamda har chorakda yil boshidan o'tgan yilning mos davriga nisbatan narx indekslari hisoblanadi.

Mazkur indekslarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

joriy chorakda o'tgan yilning IV choragiga nisbatan:

$$LTR_{2,q} = \prod_{n=1}^q STR_n,$$

bunda:

$LTR_{2,q}$ – o'tgan yil IV choragiga nisbatan hudud (respublika) bo'yicha joriy q chorakdagi narxlar indeksi;

STR – o'tgan chorakka nisbatan hudud (respublika) bo'yicha n choragi uchun narxlarning qisqa muddatli indeksi;

q – joriy chorak;

n – chorak tartib raqami.

joriy chorakda o'tgan yilning mos choragiga nisbatan:

$$LTR_{3,q} = \frac{LTR_{q,G}}{LTR_{q,G-1}},$$

bunda:

$LTR_{3,q}$ – o'tgan yilning mos choragiga nisbatan hudud (respublika) bo'yicha joriy q chorakdagi narx indeksi;

LTR_q – tayanch yilning IV choragiga nisbatan hudud (respublika) bo'yicha joriy q chorakdagi narx indeksi;

q – joriy chorak;

G – joriy yil;

$G-1$ – o'tgan yil.

yil boshidan har chorakda o'tgan yilning mos davriga nisbatan:

$$LTR_{4,q} = \frac{\sum_{n=1}^q LTR_{n,G}}{\sum_{n=1}^q LTR_{n,G-1}},$$

bunda:

$LTR_{4,q}$ – o'tgan yilning mos davriga nisbatan yil boshidan boshlab joriy q chorakkacha bo'lgan narxlar indeksi (hudud (respublika) bo'yicha);

LTR_n – tayanch yilning IV choragiga nisbatan n chorak uchun narx indeksi (hudud (respublika) bo'yicha);

q – joriy chorak;

G – joriy yil;

$G-1$ – o'tgan yil.

hisobot yili joriy choragining o'tgan yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (ushbu formula umumlashtirishning barcha darajalari uchun qo'llaniladi):

$$LTR_{5,q} = \frac{LTR_{q,G}}{\sum_{n=1}^4 LTR_{n,G-1}}$$

bu yerda:

$LTR_{5,q}$ – hisobot yili (G) joriy q choragidagi o'tgan yilning ($G-1$) o'rtacha yillik narxlariga narx indeksi;

LTR_n – hisobot yili (G) n choragidagi tayanch yil IV choragiga nisbatan uzoq muddatli indeks;

G – hisobot yili;

$G-1$ – o'tgan yil.

hisobot yili joriy choragining hisobot yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi (ushbu formula umumlashtirishning barcha darajalari uchun qo'llaniladi):

$$LTR_{6,q} = \frac{LTR_{q,G}}{\sum_{n=1}^4 LTR_{n,G}}$$

$LTR_{6,q}$ – hisobot yili (G) joriy q choragidagi hisobot yili (G) o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi

LTR_n – hisobot yili (G) n choragidagi tayanch yil IV choragiga nisbatan uzoq muddatli indeks;

G – hisobot yili;

4-bob. Ma'lumotlarni tahlil qilish

43. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida uy-joy narxlari indeksi to'g'risidagi statistik materiallarni ishlab chiqish, ularni batafsil tekshirish va rasmiy statistika ma'lumoti sifatida tarqatish uchun tayyorlash amalga oshiriladi.

44. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida tayyorlangan chiquvchi jadvallar natijalarini, shuningdek, ma'lumotlar bazasidan yoki tayyor hujjatlar bazasidan olingan zarur axborotlarni ko'rib chiqish, shakllantirilgan ma'lumotlar asosida diagrammalar, grafikalar va tahliliy jadvallarni tuzish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

Narx indeksleri to'g'risidagi statistika ma'lumotlari sifatini tahlil qilishda, statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi va aniqligi (asoslanganligi, xatolarning yo'qligi), yaxlitligi (qamrovning to'liqligi, statistika metodologiyasiga rioya etilganligi), bir-biriga qarama-qarshi emasligi, qiyosiyliigi (hudud, qamrab olingan obyektlar doirasi, o'lchov birligi va boshqalar bo'yicha), bir xilda tuzilganligi (ma'lumotlarni chiqarib tashlash, ularda keskin o'zgarishlar, tushirib qoldirish holatlarining mavjud yoki mavjud emasligi) jihatlari ko'rib chiqiladi.

45. Ma'lumotlarni tahlil qilish doirasida amalga oshiriladigan tekirish ishlari birlamchi ma'lumot qamrovi ko'rsatkichi va savolnoma bo'yicha taqdim etilgan javoblar koeffitsiyentining belgilangan talablarga muvofiqqligini tekshirish, statistika ma'lumotlarini oldingi davrlar va joriy trendlar bilan solishtirish ishlarini o'z ichiga oladi.;

Zarur hollarda, tahlil qilish doirasida narx indeksleri to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilinishini ta'minlashga qaratilgan turli tushuntirishlar tayyorlanishi mumkin.

Ushbu jarayonda, shuningdek, barcha chiquvchi jadvallar, fayllar va boshqa statistik materiallar tayanch korxonalar va ular bo'yicha individual ma'lumotlarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini bermayotganligini tekshirishni nazarda tutuvchi birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiya qilishni oldini olish bo'yicha choralar qo'llash amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

46. Narx indeksi to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish GSBPMning VII bosqichida nazarda tutilgan jarayonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Narxlar darajasi va ularning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar ularning respublika iqtisodiyotiga ta'sirini baholash uchun statistik tahlil qilishda, shuningdek, mamlakatda uy-joy ko'chmas mulk bozorida shakllangan joriy holatni baholashda foydalanilishi mumkin.

47. Nashrlar va rasmiy xabarlarda narxlar indeksleri to'g'risidagi ma'lumotlar verguldan keyin bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. "Uy-joy narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma" XMT, XVJ, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, Yevropa iqtisodiy kommissiyasi va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan, 2013- y.

2. "Choraklik milliy hisoblar bo'yicha qo'llanma" 2017- yildagi nashr, Xalqaro valyuta jamg'armasi – 2018- y.

3. "O'zbekiston. Uy-joy narxlari indeksi bo'yicha missiya hisoboti (2021- yil 29- noyabr – 3- dekabr). Texnik hisobot" R. Layons, 2021- yil dekabr;

4. "Turar-joy binolari umumiy maydonining bir kvadrat metr o'rtacha qiymatlarni va uy-joy bozorida o'zgarishida narx indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom", Belarus Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 24.05.2021- yildagi 17- son qarori bilan tasdiqlangan.

(<https://www.belstat.gov.by/metodologiya/metodiki-po-formirovaniyu-i-raschetu-statistichesk/>);